

BO'SHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNI O'QIB TUSHINISHGA O'RGATUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mirzayeva Dirlabo

Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi

Aannotatsiya:

Har bir sinfda o'qilgan barcha asrlar o'quvchilarga mos ravishda biror voqeani aks ettiradi. Bu boladagi nutqni rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o'quvchining diqqati oshib xotirada saqlash qobiliyati o'sadi. Bunday jarayonda ayniqsa o'qib tushinishning o'rni benihoyat kattadir. Bu jarayonda, matnni o'qish va tahlil qilish, uni qayta o'qish, rasmning matn mazmuni bilan bog'liqligini aniqlash. Savollar va rasm asosida matn mazmunini qayta hikoyalatish, rasm asosida matn mazmunini to'ldirish, mantiqiy mashqlar yordamida lug'atini boyitish, ulardan nutqida foydalanish ko'nikmasini shakllantirish. Kesa bo'g'inlar asosida o'qilgan va ma'nosi izohlangan so'zlarni tuzdirish muhimdir.

Kalit so'zlar: o'qib tushinish, tushinish, tahlil qilish, maydalab o'qish, umumlashtirish.

Boshlang'ich sinfda o'qib tushinish elementi birinchi sinfdanoq boshlanadi. O'qish darslarida matnni o'qib tushinish ko'nikmasi oddiydan murakkabga tomon shakllantirilib boriladi. O'quvchilar tomonidan matn bir xil o'qilishi mumkin, ammo ular tushunishning har xil darajasida turgan bo'ladi. O'qituvchi ushbu darajalarni yaxshi bilsa, savollar yordamida o'quvchining qaysi darajada turganini aniqlashi matnni yaxshiroq tushunishi uchun yo'nalish berishi mumkin bo'ladi. Ona tili darsliklaridagi matn bilan ishlash mashqlari ham mazkur nazariy ma'lumotga asoslanishi lozim. Chunki so'zlarning matn ichida qanday ma'noda kelayotgani matnning mazmunidan anglashiladi. Dars jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchisining ehtiyoj va imkoniyatlarini o'rganib, uni hisobga olishni va ehtiyojlarini to'ldirishni, imkoniyatlarni boyitib borishni o'z oldiga qo'yilgan vazifalardan biri deb hisoblashi lozim. O'qish darsining yangi mavzu bayoni bosqichi asosan o'quvchilarni asar matni, undagi voqealar mazmuni bilan



tanishtirish, ya'ni anglash bosqichidir. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'limda o'qib tushinish topshiriqlari bilan ishlash muhimdir.

O'qish va tushunish — bu matnni qayta ishlash, uning ma'nosini tushunish va o'qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bog'lab anglay olish qobiliyatidir.[1][2] So'zlarning lug'aviy ma'nosini bilish, so'zlarning kontekstual ma'nosini bilish, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'lanishini anglash, matn tarkibidagi parchalar asosida xulosa chiqarish, matndagi asosiy fikrini aniqlash, berilgan savollarga matn asosida javob bera olish, matnda ishlatilgan badiiy san'atlar yoki so'z birikmalarini tanib, ajratib olish va ohangini aniqlash, vaziyatning kayfiyatini (tasdiq, inkor, so'roq qilish, buyruq berish), muallifning maqsadi, niyati va nuqtai nazarini aniqlash va muallif to'g'risida xulosalar chiqarish qobiliyatlari o'qilgan matnni samarali tushunish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar hisoblanadi. (diskurs-semantika).[3][4]

Matnni o'qib tushunish qobiliyatiga o'quvchining yuqoridagi ko'nikmalari hamda ma'lumotni qayta ishlash qobiliyati ta'sir ko'rsatadi. Agar o'quvchi so'zning ma'nosini bilmasa, u matnni qayta ishlash uchun juda ko'p vaqt sarflaydi, chunki u matndagi tushunilmagan so'zlarni individual tarzda anglashga urinadi, bu esa tushunishga ham halal beradi. O'qib tushunish malakasini rivojlantirish uchun ko'plab mashqlar mavjud, ular orasida so'z boyligini oshirish, matnni tanqidiy tahlil qilish, maydalab o'qish.[5]

Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun rasmlarni ko'z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, undan bo'g'inni aytishni talab qiladi. O'quvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo'shib bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilguncha, o'qish jarayoni sustlashadi. Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, harfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishiga to'g'ri keladi. O'quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunligicha idrok eta boshlaydi. O'qishni endi o'rganayotgan bola o'qiyotgan matn mazmunini o'zlashtirmaydi, chunki u so'zni qanday o'qishga ko'p kuch beradi. Darslikdagi rasmlar, o'qituvchining savollari, ko'rgazmali qurollar ularning ongli o'qishlarini ta'minlaydi.

Har bir predmetda bo'lgani kabi o'qish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. O'qish darslarida tarbiya o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga



bog'liq. Birinchidan, o'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o'zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, yaxshi inson bo'lish uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqatni qaratish lozim. Bunda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Rasmni kuzating, matnda nima haqida gap boradi?
2. Qarangchi, rasmda nimalar tasvirlangan? Ular nima ish bilan shug'ullanishmoqda?
3. Matn mazmunini rasmga qarab so'zlab bering.
4. Bolalar qayerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi?
5. anvar, Saida nima qildi? Ular qanday rangdagi gullar terdilar?

Demak, o'qish o'qilganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi, so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchiniki bo'lib qoladi. Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbatlari ham, o'qilgan matn yuzasida o'qishga xizmat qiladi. Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish ham zarur.

Boshlang'ich sinflar uchun darslikdagi har bir mavzu bo'yicha berilgan rasmlar va topshiriqlar o'quvchilarda savollar tug'diradi va idrok qilib g'oyalarini targ'ib etishlariga imkon yaratadi. Ushbu kichik matnlar orqali ishlab, oddiydan murakkabga qarab matn asosida tuzilgan topshiriqlarni bajargan o'quvchilarda murakkabroq matnlar bilan ishlash uchun adaptatsiya hosil bo'ladi. Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda alohida yondashuv asosida metodikaga zarurat sezilishi, tabiiydir. O'qib tushunish ko'nikmasi o'quvchilarning psixik jarayonlari barqarorligiga, ularning yosh xususiyatlari bog'liq bo'lib, matnni o'qib, to'liq tushunish turli xil mashqlar va mashg'ulotlar davomida rivojlantirishni talab etadi. O'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan bugungi kunda mazkur mavzuda alohida yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borish zarurati mavjud. O'quvchilarni nutqiy vaziyatlarga tayyorlaymiz. Ona tilida o'qitishda o'quvchilarda



o'qish, yozish, fikrini erkin ifodalash hamda tinglab tushunish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirish barobarida, ularni hayotda duch keladigan nutqiy vaziyatlarga ham tayyorlaydi. Bolalarning fikr yurita olishlariga erishish uchun ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan ularga dars davomida qulay muhit yaratib berilishi va imkoniyatlar eshigi ochib berilishi lozim. Bu borada o'qituvchilarimizga albatta darsliklar eng birinchi yordamchi o'quv vositasi hisoblanadi.

Odatda o'qishdan ko'zlangan har qanday maqsad ma'lum turdagi matnlar bilan bog'liqlikka ega. Masalan, badiiy tajriba orttirish uchun o'qish odatda fantastik asarlarni mutolaa qilish bilan bog'langan, vaholanki axborotni olish va undan foydalanish ma'lumotga boy maqolalar va ko'rsatmaga oid matnlarni o'qish bilan amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan, o'qishdan ko'zlangan maqsadlar alohida matn turi bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, tarjimai hollar odatda axborot beruvchi yoki badiiy turkumga mansub material hisoblanadi, ammo ular o'qishdan ko'zlangan har ikkala maqsad xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim mutaxassisi boshlang'ich ta'limning o'ziga xosliklarini anglash, turli tipdagi ta'lim muassasalarida bolalarni o'qitishda uzviylikni amalga oshirish vositalarini egallashi;

boshlang'ich ta'limga doir zamonaviy bilimlarni egallashi;

boshlang'ich ta'limga doir bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish hamda egallangan tayanch bilimlarni o'quvchilarga uzatishga qobiliyatlilik;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi fan dasturlari (ona tili, bolalar adabiyoti, matematika, geografiya (atrof, olam), texnologiya) doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

Adabiyot so'z san'atidir, shu sababli ona tilini puxta o'zlashtirmasdan turib, adabiyotning go'zalligi va qudratini anglab bo'lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala o'quvchida so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog'lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish, u yoki bu fan bo'yicha o'rgani-layotgan voqea-hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish malakasini o'stiradi. Bu bilan o'quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga egabo'ladi. O'qituvchi ona tili, adabiyotdarslarini boshqa fanlar bilan uzviy bog'lagan holda o'qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash



jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan oʻrni bilan bogʻlaydi va oʻquvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish oʻquvchini ijodiy fikrlash, matnni oʻqib tushunishga oʻrgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. What is Reading Comprehension?“ (en-US). Reading Worksheets, Spelling, Grammar, Comprehension, Lesson Plans (29-may 2008-yil).
2. William Grabe. Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. Cambridge University Press, 2009. ISBN 978-0-521-72974-1. „Koda, 2005:4“Davis, F.B. Psychometrika (1944)
3. Committee on Learning Sciences: Foundations and Applications to Adolescent and Adult Literacy. Improving Adult Literacy Instruction: Options for Practice and Research. National Academies Press, 2012 —ISBN 978-0-309-21960-0.
4. Maryanne Wolf. Tales of Literacy for the 21st Century: The Literary Agenda. OUP Oxford, 2016. ISBN 978-0-19-103613-2.
5. Azimova I.va boshq. Ona tili va oʻqish savodxonligi 2-qism: 4-sinf uchun darslik – T.: Respublika taʼlim markazi, 2021.
6. Matchonov S. va boshq. Boshlangʻich sinf oʻqish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. — T.: Yangiyul poligraph service, 2000
7. Mavlyanova R., Boshlangʻich sinfda integratsiya,-T.: 2009
8. Ona tili va oʻqish savodxonligi [Matn]: 3-sinf oʻqituvchilari uchun metodik qoʻllanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika taʼlim markazi, 2022.